

UO‘K(UDC, УДК): 82.1/.0

**XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK VA TURK SHE’RIYATIDA  
MA’RIFATPARVARLIK RUHIDAGI SHE’RLARNING USLUBIY  
KO‘RINISHLARI<sup>7</sup>**

**No‘monova Ro‘zaxon No‘monjon qizi**

*Namangan davlat texnika universiteti*

*3-bosqich tayanch doktoranti,*

*Namangan, O‘zbekiston*

*E-mail: [rozaxonnomonova@gmail.com](mailto:rozaxonnomonova@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0002-6982-0560*

---

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada XX asrga qadar bo‘lgan davrda turkiy adabiyotdagi o‘nlab janrlarda, xususan she‘r, doston, balladalarda erk va ma‘rifat g‘oyalarining qanday ifoda etilgani misollar vositasida dalillanadi. XX asr boshlariga kelib esa o‘zbek va turk adabiy aloqalarining o‘ziga xosliklari, Tanzimot davri she‘riyati va jadidlar adabiyotidagi uslubiy o‘zgarishlar, adabiy jarayonlar holati, ularning mushtarak jihatlari, vaznlar va she‘riy shakllarning yangilanishi haqida bir qator fikrlar yuritilgan. Maqolada, shuningdek, jadid adabiyoti va Tanzimot adabiyoti vakillari ijodidagi farqlar yaqqol misollar vositasida qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan. Erk, ma‘rifat mavzularining bosh planga chiqqanligi T.Fikret, N.Kamol, Cho‘lpon, Fitrat, Hamza, Avloniy va boshqa ushbu davr shoirlari ijodidan keltirilgan parchalarning tahlili bilan isbotlangan. Mazkur davr ijodkorlari tomonidan faqat turk va o‘zbek adabiyotiga emas, balki dunyo adabiyotiga olib kirilgan yangi she‘riy shakllar, she‘riy vaznlar va obrazlar tizimidagi o‘zgarishlar haqida fikr yuritilgan. Ushbu yangiliklar adabiyot qiyofasini butunlay o‘zgarishiga, she‘riyatni keyingi bosqichga o‘tishiga sababchi bo‘ldi va tabiiyki, kelgusi avlod shoirlari uchun mazkur izlanishlar tajriba maktabi vazifasini o‘taydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zoonimik tasvirlar badiiy matnda biologik voqelik bilan ramziy ma‘no o‘rtasida o‘ziga xos semantik ko‘prik vazifasini bajaradi hamda mualliflarning estetik qarashlari va madaniy tafakkurini yoritishda muhim poetik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**KALIT SO‘ZLAR**

Adabiy jarayon, yangilanishlar, adabiy aloqalar, ma‘rifatparvarlik ruhi, jaded adabiyoti, she‘riyat, she‘riy vazn, turkiy she‘riyat.

**Received:** February 05, 2026

**Accepted:** February 13, 2026

**Available online:** May 10, 2026

---

<sup>7</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

No‘monova R. XX asr boshlarida o‘zbek va turk she‘riyatida ma‘rifatparvarlik ruhidagi she‘rlarning uslubiy ko‘rinishlari. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2026. – Vol.3, № 2(10) – B. 64-76.

---

**STYLISTIC FEATURES OF ENLIGHTENMENT-INSPIRED POEMS IN  
UZBEK AND TURKISH POETRY AT THE BEGINNING OF THE 20TH  
CENTURY****No‘monova Ro‘zaxon No‘monjon kizi***Namangan State Technical University**3rd-year doctoral (PhD) student**Namangan, Uzbekistan**E-mail: [rozaxonnomonova@gmail.com](mailto:rozaxonnomonova@gmail.com)**ORCID ID: 0009-0002-6982-0560*

---

**ABSTRACT**

This article substantiates, through examples, how the ideas of freedom and enlightenment were expressed in dozens of genres of Turkic literature prior to the twentieth century, particularly in poems, distant, and ballads. By the beginning of the twentieth century, it examines the distinctive features of Uzbek-Turkish literary relations, the poetry of the Tanzimat period, stylistic changes in Jadid literature, the state of the literary process, their common characteristics, as well as the renewal of poetic meters and forms. The article also comparatively analyzes the differences in the works of representatives of Jadid and Tanzimat literature through clear examples. The prominence of the themes of freedom and enlightenment is demonstrated through an analysis of excerpts from the works of poets of this period, including T. Fikret, N. Kemal, Chulpon, Fitrat, Hamza, Avloniy, and others. Furthermore, the study discusses the new poetic forms, metrical patterns, and transformations in the system of imagery introduced by the writers of this period not only into Turkish and Uzbek literature, but also into world literature. These innovations led to a complete transformation in the character of literature and marked the transition of poetry to a new stage of development. Naturally, these explorations also served as a school of experience for poets of subsequent generations.

**KEY WORDS**

Literary process, renewals, literary connections, the spirit of enlightenment, Jadid literature, poetry, poetic meter, Turkic poetry.

**СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ  
ЛИРИКИ В УЗБЕКСКОЙ И ТУРЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ  
НАЧАЛА XX ВЕКА**

**Нумонова Рузахон Нумонжон кизи**

*докторант 3-го курса*

*Наманганский государственный*

*технический университет*

*Наманган, Узбекистан*

*E-mail: [rozaxonnomonova@gmail.com](mailto:rozaxonnomonova@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0002-6982-0560*

---

**АННОТАЦИЯ**

В статье на материале образцов узбекской и турецкой литературы, созданных до XX века, рассматриваются особенности выражения идеи свободы и просвещения в различных жанрах (в лирике, дастанах и балладах). Характеризуется состояние литературного процесса, раскрывается специфика узбекско-турецких литературных связей, существовавших в это время, анализируются стилистические изменения в поэзии периода Танзимата и литературе джадидов, выявляются их общие черты, а также обновление поэтических размеров и форм.

В статье также в сравнительном аспекте на основе наглядных примеров исследуются различия в творчестве представителей джадидской и танзиматской литературы. Выдвижение на первый план тем свободы и просвещения подтверждается анализом фрагментов из произведений поэтов данного периода – Т. Фикрета, Н. Камола, Чулпана, Фитрата, Хамзы, Авлони и других.

Кроме того, рассматриваются новые поэтические формы, размеры и изменения в системе образов, введённые авторами данного периода не только в турецкую и узбекскую литературу, но и в мировую литературу. Эти нововведения существенно изменили облик литературы, способствовали переходу поэзии на новый этап развития и, естественно, послужили своеобразной школой опыта для последующих поколений поэтов.

---

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Литературный процесс, обновление, литературные связи, дух просветительства, джадидская литература, поэзия, стихотворный ритм, тюркская поэзия.

**KIRISH**

XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik she'riyatining muhim xususiyatlaridan biri – publitsistiklik bilan lirikaning aralashuvidir. O'zbek va turk shoirlari she'r orqali ijtimoiy muammolarni ochiq oshkora bayon etar ekan, badiiylikdan voz kechmagan holda publitsistik pafosni poetik obrazlar va timsollar orqali badiiy estetik darajaga ko'taradilar. Ushbu holat she'riyatda "badiiy publitsistika" fenomenining shakllanishiga olib keladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek va turk ma'rifatparvar she'riyati umumiy tarixiy-tafakkuriy zamin asosida rivojlangan bo'lsa-da, har ikki adabiyotda milliy poetik an'analarga mos o'zigagina oid estetik yo'nalishlar vujudga kelgan. O'zbek she'riyatida ma'rifatparvarlik ko'proq mustamlakachilik sharoitida milliy ongni saqlab qolish va uyg'otish vazifasi bilan bog'langan bo'lsa, turk she'riyatida u imperiyadan milliy davlatga o'tish jarayonidagi ideologik va madaniy transformatsiyalar bilan uzviy aloqador holda shakllangan. Alohida ta'kidlash lozimki, XX asr boshlarida o'zbek va turk she'riyatidagi ma'rifatparvarlik ruhida she'rlar poetikasi g'oya, shakl va uslubning murakkab sintezi asosida yuzaga kelgan. Ushbu she'riyat nafaqat adabiy-estetik hodisa, balki ijtimoiy tafakkurni shakllantiruvchi, milliy g'ururni uyg'otuvchi muhim madaniy omil sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihati bilan ma'rifatparvarlik poeziyasi zamonaviy o'zbek va turk she'riyatining shakllanishida mustahkam poetik poydevor vazifasini o'tadi. O'zbek she'riyatida an'anaviy poetik shakllar va didaktik ohang yuqori bo'lsa, turk she'riyatida zamonaviy adabiy oqimlar ta'siri ustunroqdir. Masalan, Cho'lpon ijodida mumtoz she'riyat an'analari saqlangan holda, ilm va ma'rifat masalalari falsafiy mushohada holda ifodalangan bo'lsa, Rizo Tavfiq va Mehmet Akif Ersoy asarlarida modernizm va milliy modernizatsiya g'oyalari yaqqol ko'zga tashlangan. XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida Hamza, Avloniy, Fitrat, Tavallo va Cho'lpon singari ijodkorlar ma'rifatparvarlik g'oyalarini poetik jihatdan boyitib, adabiyot tarixida muhim o'rin egalladilar. Xususan, Hamza she'riyatida ilm va ma'rifat zulmatni yorib chiquvchi nur simvoli orqali tasvirlanadi. Uning lirikasida ramziy va metaforik obrazlar yetakchi bo'lib, shoir xalqni jaholatdan xalos etish g'oyasini badiiy vositalar orqali ta'sirchan ifodalaydi. Hamza ijodiga xos sodda va tushunarli til, didaktik ohang va tanqidiy ruh uning she'riyatining asosiy xususiyatlaridan biridir. Avloniy ijodida esa didaktik obrazlar muhim o'rin egallaydi. U ilmni "yangi yo'l", "yorug' yulduz" singari ramzlar orqali tasvirlab, ta'limni milliy taraqqiyotga eltuvchi kuch sifatida talqin etadi. Avloniy mumtoz adabiy an'analarni o'zlashtirgan holda, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ijtimoiy-siyosiy mazmun bilan boyitishga intilgan. Fitrat ma'rifatparvarlik g'oyalarini badiiylik bilan bir qatorda siyosiy va mafkuraviy yo'nalishda ham rivojlantirdi. Uning she'riyatida ilm milliy uyg'onish va modern jamiyat barpo etishning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Fitrat obrazlari idealistik va romantik tusda bo'lib, ilm k

o‘pincha yangi ufqlarni ochuvchi nur sifatida ramziy ifodalanadi. Tavallo ijodida esa ilm va ma‘naviyat xalqni tarbiyalash va ijtimoiy ongni yuksaltirishning muhim vositasi sifatida tasvirlanadi. Uning sodda, ammo hissiy va ma‘nodorlarga boy she‘riy uslubi ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining xalqchil ruhda ifodalanishiga xizmat qiladi.

### ASOSIY QISM

Ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining poeziyaga kirib kelishi uslubiy transformatsiya, ya‘ni ham taqozo etishi turgan gap. Bu o‘zgarishlar eng avval yo‘nalishlarda kuzatiladi: til va uslubning soddalashuvida, ya‘ni og‘ir klassik uslub o‘rnini xalqqa yaqin, publitsistik ohangdagi til egallaganligida, shakl erkinligiga intilishda, ya‘ni an‘anaviy aruz tizimi bilan bir qatorda barmoq vazni va erkin ritmga qiziqish ortganligida, janrlararo yaqinlashuvda, ya‘ni she‘r, maqola va nutq uslublari o‘zaro qorishib, yangi sintetik badiiy shaklni vujudga keltirganida va emotsional ohangning kuchayishida, ya‘ni she‘rlarda da‘vat, ishonch, kurash ruhi ustuvor bo‘lganida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan yangilanishlar natijasida o‘nlab jadid shoirlari poetikasida o‘zgarish - barmoq vazniga o‘tish bosqichi kuzatildi. Mumtoz adabiyotning murakkab aruz vaznidan butunlay voz kechmagan holda, she‘rlaridagi mavzu va badiiy g‘oya nuqtayi nazaridan kelib chiqib har ikki janr elementlaridan ham foydalandilar. Jumladan, Cho‘lpon “Bizning Vatan” she‘rini aruzda yozadi va unga xos unsurlardan unumli foydalanadi:

Fan bilan mehnat ikovlon qo‘l berishgan, ittifoq,

Erkin-erkin yayrashib ijod etar mehnat va fan! (Cho‘lpon., 2022,102)

Shoirning ushbu she‘ri to‘liq aruz qoidalariga rioya qilgan holda yozilgan. Ya‘ni unda qofiya (shan, fan), raviy(n), badiiy san‘atlar (takrir, tashxis) mavjud. Lekin bir jihatni ta‘kidlash kerakki, e‘tibor berilsa, mazmunan va shaklan barmoqqa yaqinlik seziladi. Chunki jadid shoirlarining aruz vaznidagi she‘rlari mumtoz adabiyotga oid g‘azallardan murakkab iboralari, forscha, arabcha so‘zlarning ko‘p qo‘llanilishi bilan ham ajralib turgan. A.Avloniydan o‘qiymiz:

Qani avvaldagi ilming, funundin e‘tiroz etting,

Jaholat yori bo‘lding, oshnolardin aroz etting,

Bilib do‘stingni dushman, dushmaningni sarfarozi etting,

Kirib g‘aflatni xobig‘a, o‘zingni inqiroz etting,

Ko‘zing och, yotma, g‘aflatdan o‘son, millat, o‘son millat,

Topar san birla avlodning, omon, millat, omon, millat...(Avloniy A., 2024, 7)

Avloniyda ham ko‘rib turganimiz kabi aruzdan barmoqqa tomon og‘ish kuzatiladi. Shunday qilib xalqning tafakkuriy jihatdan hozir emasligi sabab jadid she‘riyatiga yangi vaznlarning kirib kelishi birmuncha tezlashdi va o‘qilishi va anglashilishi qulayligi sababidan barmoq vazni ayni davrga kelib shoirlar

tomonidan qoʻllaniladigan asosiy sheʼriy vazn turiga aylandi. “Tarixdan maʼlumki, arablarning taʼsiridan soʻng to XX asrning boshlariga qadar nazmimiz asosan aruzda yozilib kelgan, XX asrga kelganimizda esa aruz tarixiy vazn darajasiga tushib qoldi. Uning oʻrnini avvalo barmoq, qolaversa, sərbast egalladi” (Qayumov L., 1975. 88) Xususan, Choʻlpon oʻzining barmoq vaznida yozilgan sheʼrlarida esa asosan milliy poetik tafakkurning uygʻonish jarayonini aks ettiradi. Shoir barmoq vaznining boʻgʻin asosiga qurilgan moslashuvchan imkoniyatlaridan unumli foydalanib, xalq ogʻzaki ijodiga xos ritmik modellarga tayangan holda individual poetik nutqni shakllantiradi. Besh hijodan oʻn olti hijogacha boʻlgan vazn diapazonida ijod qilishi, ayniqsa, oʻn bir hijoli (4+4+3) barmoq vaznining faol qoʻllanishi Choʻlpon sheʼriyatida folklor ritmikasi va zamonaviy lirik kechinma oʻrtasidagi uzviy aloqadorlikni koʻrsatadi:

Aytalarkim, yozda har bir joni bor  
Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar  
Aytmaylarkim, Sharqda bogʻliq xotinlar  
Ul yorugʻ dunyoga na zamon kirar?..

Shoir poetikasida qoʻllangan sintaktik pauzalar va intonatsion urgʻular sheʼr semantikasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Natijada, vazn qatʼiy sxema sifatida emas, balki mazmun bilan hamohang ravishda oʻzgaruvchan poetik mexanizm sifatida namoyon boʻladi. Bu holat Choʻlpon sheʼriyatida barmoq vaznining ustuvorligini taʼminlab, sheʼrni jonli estetik hodisaga aylantiradi. Birgina Choʻlpon emas, Fitrat, Avloniy, Tavallo, Hamza va boshqa shoirlar ijodiy yoʻnalishida ham barmoq vaznidan foydalanish asosiy oʻringa koʻtarildi. Xususan, A. Fitratning ilm va maʼrifat bobida yozilgan “Oʻqitgʻuchilar yurtiga” sheʼri barmoqda yozilgan boʻlib, unda vazn goʻzalliklari bor boʻyicha aks etgan:

Biz erurmiz elning insonliq qonin qaynatgʻuchi,  
Turk arslonin oʻrunsiz uyqudan uygʻotgʻuchi.  
Maʼrifat bayrogʻi ostida yigʻildi barchamiz --  
Kim, bizni zangʻarlara haq yoʻllarin koʻrsatkuchi...  
Ellari mahvdan qutqaron ilm erur,  
Bizlari ham bu kundan qutqarur. ( Fitrat A., 2024, 55)

Mazkur sheʼrda maʼrifatparvarlik poeziyasiga xos boʻlgan badiiy sanʼatlar va tasviriy ifodalar izchil va tizimli tarzda qoʻllanilgan boʻlib, ular asarning gʻoyaviy-estetik yukini kuchaytirishga xizmat qiladi. Sheʼrda ramziy obrazlar muhim oʻrin egallaydi. Xususan, “Turk arsloni” obrazi kuch, jasorat va tarixiy qudratning milliy timsoli sifatida qoʻllanilgan. Arslonning “uyquda” tasvirlanishi millatning vaqtincha sustlashgan, ammo mohiyatan qudratini saqlab qolgan holatini ifodalaydi. Sheʼrda allegorik tasvir tizimi ham izchil tashkil etilgan. Qon, uyqu, uygʻonish, bayroq va

najot kabi obrazlar ketma-ketligi jamiyatning ruhiy holatini bitta uzluksiz badiiy modelda ifodalab, milliy uygʻonish jarayonining poetik manzarasini yaratadi. Ushbu sheʼrda metafora, ramz, allegoriya, epitet, takror va ritorik murojaat kabi badiiy sanʼatlar uzviy tizim hosil qilgan holda qoʻllanilgan. Tasviriy ifodalar estetik bezak vazifasini emas, balki gʻoyaviy taʼsirchanlikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Avloniyning ham ayni uslubda gʻoyaviy jihatdan yuqoridagi sheʼrga yaqin, lekin janr nuqtai nazaridan farq qiluvchi “Oila munozarasi”, “Shoir ila toʻti” nomli sheʼrlarini munozara xarakterida yozilgan. Masalan, “Oila munozarasi” sheʼrida ota tilidan aytilgan quyidagi savolgan maʼrifat va maʼnaviyatdan bebahra onaning javobi keltiriladi:

Ota:

Oʻgʻlimizni oʻqutsamiz-chi, xotun?  
Qizimiz ham oʻqusa, boʻlgʻay otun,  
Ilmsizlar koʻra qaro kunlar,  
Yoshlik vaqtidur kumush, oltun.

Ona:

Oʻgʻlimiz oʻqubon eshon boʻlmas,  
Qiz oʻqusa uy ishlarin bilmas.  
Oʻqugonlar boʻladi mahmadona,  
Siz-u bizni nazar-pisand qilmas. (Avloniy A., 2024, 105)

Sheʼrda ilm-maʼrifatning inson hayotidagi ahamiyatini ota va ona oʻrtasidagi suhbat orqali ochib beriladi va dialog usulidan unumli foydalaniladi.

XX asr boshlaridagi jadid adabiyotining eng katta yangiliklaridan biri sifatida shoirlar ijodida erkin sheʼrning paydo boʻlganini taʼkidlash lozim. Erkin sheʼr shaklining paydo boʻlishi shoirlar poetik tafakkurining yangi bosqichga koʻtarilganidan dalolat beradi. Maʼlumki, erkin sheʼrda misralararo hijolar sonining notekisligi, qofiyaning nisbiy erkinligi va sintaktik tuzilmaning yetakchi oʻringa chiqish holatlari kuzatiladi. Bunda vazn butunlay rad etilmaydi, balki ritmning moslashuvchan, mazmunga boʻysunuvchi shakli sifatida qayta tashkil etiladi. Jumladan, Choʻlponning “Tun” nomli sheʼrida aynan shu ritmik model ustuvorlik kasb etadi:

Tun yomon, tun qorongʻi,  
Tun qoʻrqinch, tun azob!  
Tunda eski va yangi

Har narsa xayol va sarob (Avloniy A., 2024, 105)

Sarbast sheʼr esa Choʻlpon poetikasida erkinlikning eng yuqori nuqtasini ifodalaydi. Sarbast shaklda vazn, turoq va qofiya kabi anʼanaviy metrik belgilar inkor etilib, poetik ifodaning asosiy yukini semantik intensivlik, sintaktik qurilish va

intonatsion oqim bajaradi. Bu holatda soʻzning maʼnosi, uning emotsional-psixologik zaryadi birinchi planga chiqadi. “Binafsha” kabi sheʼrlarda sarbast va barmoq unsurlarining qorishuvi kuzatilib, Choʻlpon poetikasiga xos boʻlgan oʻtish davri ritmik tafakkuri namoyon boʻladi:

Binafsha,  
Ayt menga,  
Kimlardir ularkim,  
Ignani bagʻringga sanchsalar?  
Binafsha bir soʻyla,  
U qanday qoʻllarkim,  
Uzalar, hidlaylar... yanchalar?

Umuman olganda, Choʻlpon sheʼriyatida vazn masalasi poetik tafakkurning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida shakllanadi. Shoir barmoq, erkin va sarbast sheʼr shakllari orqali oʻzbek sheʼriyatida yangi ritmik-estetik paradigma yaratdi. Bu paradigma milliy poetik anʼana va zamonaviy estetik talablar sinteziga asoslanib, Choʻlpon ijodini XX asr oʻzbek sheʼriyatining eng muhim badiiy bosqichlaridan biriga aylantiradi.

Mumtoz adabiyotimizdan beri asosiy obraz sifatida qoʻllanib kelinayotgan gul, bulbul, agʻyor, yor, may va boshqalar mazkur davrga kelib mazmuniy ifodasini oʻzgartiradi. Yaʼni endilikda gul anʼanaviy maʼshuqani ifoda etmaydi, balki zamonaning zoʻrligidan qiynalayotgan inson timoslida gavdalanadi. Shoirning “Sadoyi bulbul”, “Hijroni bulbul”, “Figʻoni bulbul” kabi sheʼrlarida mazlum Turkistonga qarata, butun oʻlka farzandlariga qaratq aytilgan qaygʻu toʻla murojaati yangraydi:

Qoʻnub gul shoxiga bulbul, der: Ey insonlar, insonlar,  
Qilursiz tobakay gʻofil yotub afgʻonlar, insonlar.  
Turing uyquni tashlang, ilm oling, yoshlik gʻanimatdur,

Yoʻq ersa, boʻlgʻungizdur jahl uchun qurbonlar, insonlar (Avloniy A., 2009, 151)

Bu oʻrinda qoʻllanilgan gul va bulbul juftligi oshiq-mashuqa rovida emas, aksincha butunlay boshqa ifodani oʻzida aks etgan. Gul-yurt timsolida, bulbul esa oʻlka taqdiri va kelajagidan qaygʻurayotgan millat ziyolilari sifatida namoyon boʻlgan. Yoshlik chogʻida ilm olinmasa, keyinchalik haqiqatdan unga muhtoj boʻlganda kech boʻlishi mumkinligi, tafakkur qilish zarur vaqtda esa jahl bilan qaror qilib, oxirida uning qurboniga aylanishdan ogohlantiradi.

Yuqorida taʼkidlanganidek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi adabiy jarayonlarning sustlashib qolganligining asosiy sabablari mustamlakachi siyosatning adolatsiz boshqaruvi va mahalliy amaldorlarning nazorati edi. Xalq

ahvoli og'ir, kundalik tirikchiligini amallab o'tkazish dardida yurgan ommaning savod chiqarishga, ma'rifatli bo'lishga imkoni yo'q edi. Bu holatni yaqqolroq tasavvur qilishimiz uchun Cho'lponning "Qurboni jaholat", M.Behbudiyning "Padarkush", Hamzaning "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" asarlarini ko'z oldimizga keltirish kifoya. Mustamlakachi hukumatning Turkiston o'lkasi taqdiri borasidagi rejalaridan biri- aynan xalqni savodli bo'lishiga imkon yaratuvchi, haq-huquqini tanituvchi jadid ziyolilari yo'liga to'g'anoq bo'lish edi. Buni mazkur mavzuda Rossiyaning Sharqdagi siyosatiga ma'lum darajada ta'sir o'tkazgan vakillaridan N.I.Ilminskiy o'zining maslakdoshiga yuborgan xatida "Olimlardan va o'ta bilimli o'qituvchilardan ehtiyot bo'linglar. O'ta ododbi va mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarga qaraganda ularni juda qattiq kuzatuv ostiga olinglar" (Каримов Н., 2008, 316), qabilidagi maslahati bilan dalillashimiz mumkin. Shuning uchun ham jadid ma'rifatparvarlari bir jon-u bir tan bo'lib, bor kuch-quvvatlarini, aql-zakovatlarini ijod va ilmga qaratdilar, chunki yagona hamda ishonchli yo'l - adabiyot edi.

XX asr boshlarida ijod etgan jadidlarimizdan Tavallo she'riyati ham o'ziga xosliklari bilan g'oyatda ahamiyatlidir. Uning she'rlarida haqiqiy jadidona ruhiy kechinma, mustamlaka zulmiga qarshi isyon, ilm-ma'rifatga tashnalik, millatining ahvolidan qayg'uga botgan insonning timsolini ko'ramiz. Shoir she'rlari o'z zamirida nolish, oh-faryodni emas, aksincha kurash uchun chaqiriq, iztirob-u alamdan o'z holiga zaharxandalik bilan kulayotga n millat ziyolisining hislarini tashiydi:

Yovrupo ahli, siz quloq solingiz,  
Biz hunarlar yozub, tanushtiramiz.  
Kelturung, zanbarak, qurol necha xil,  
Bizni sopqon ila otshtiramiz.  
Aftamabil aravangiz qayda  
Xo'qand aroba bilan chopushtiramiz.  
Qani ayripilonu gidropulon,  
Varvarax bilan uchushtiramiz.  
Bormi sizda bedona, kakliklar?  
Pul tikib o'rtaga cho'qushtiramiz... ( [https:// kh -davron .uz](https://kh-davron.uz))

Ko'rib turganimizdek, uning she'ri ham tilining sodda va ravonligi bilan ajralib turadi. Shoir jadid zamondoshlari singari jamiyatda ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishga, davrdoshlarini o'z qobig'iga o'ralib, zamondan orqada qolmasdan haq-huquqlarini tanishga undab, kamchilik va nuqsonlar, muammolardan ko'z yummay, ularni hajv yo'li bilan bartaraf etishga bel bog'lagan, shu maqsadda she'rlar bitgan:

Ruslar otib bir zambarak,  
 Borlarni qildi bedarak.  
 Biz bog‘da chalib tar-tarak,  
 Sopqon otolmaymiz hanuz.  
 Ruslar uchsa osmon,  
 Mashinasi aeroplan.  
 Nechun bizlar tramvaydan  
 Yerga tusholmaymiz hanuz?!  
 Bizlar katta narvon qo‘yib,  
 Tomdan tusholmaymiz hanuz.

Hajv yo‘li orqali ilmga da‘vat qilish adabiyotimiz uchun yangilik edi, Bunday yo‘nalishdagi she‘rlarni oddiy xalq ham qiziqish bilan o‘qiydi, ham kichik yoshdagi yigit-qizlar uchun yodlashga nihoyatda qulay. Bu davr aytib o‘tganimiz o‘zgarish va yangiliklarga boy bo‘ldi, bunda albatta jadid shoirlarining o‘rni beqiyos.

XX asr boshlarida o‘zbek va turk poeziyasi o‘rtasida ma‘lum darajada yaqinlik va g‘oyaviy mushtaraklik belgilari ko‘rinsa-da, aniq, faktlarga asoslangan farqlar ham mavjudki, ularni alohida eslatib o‘tish joiz. Avvalo, ikki adabiyotda ham ma‘rifatparvarlik poeziyasi modernizatsiya jarayonining badiiy in‘ikosidir. Bu nuqta ularni birlashtirib turgan bo‘lsa, o‘zbek va turk adabiyoti shoirlari ijodini qiyosan tadqiq qilish orqali ular o‘rtasida quyidagi farqlar ko‘zga tashlanganini ko‘rish mumkin:

–turk poeziyasida ma‘rifatparvarlik g‘oyalari ko‘proq davlatchilik faoliyati va millat qurilishi bilan bog‘liq bo‘lsa,

– o‘zbek poeziyasida bu g‘oyalar mustamlakachilik sharoitida milliy ongini saqlab qolish va uyg‘otish vazifasini bajarishga xizmat qiladi;

– turk she‘riyatida ramziy vositalardan foydalanish avval nihoyatda kuchayib, so‘ng o‘rnini oshkoralik egallagan bo‘lsa,

– jadid she‘riyatida shoirlar ramz, istiora va metafora kabi badiiy vositalarni keng va chuqur ma‘noda uzluksiz qo‘llayverdilar;

Ta‘kidlanganidek, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turk she‘riyati ham huddi Turkistonda bo‘lgani kabi chuqur g‘oyaviy hamda poetik yangilanish jarayonini boshdan kechirdi. Mazkur uzluksiz o‘zgarishlar, avvalo, Namıq Kamol, Tavfiq Fikret va Ziya Gökalp ijodi orqali aniq kuzatiladi. Ushbu uch shoir turk she‘riyatining an‘anaviy lirikadan ijtimoiy xarakterdagi, modern va milliy poetikaga o‘tishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Bu jarayonning dastlabki bosqichi Namıq Kamol nomi bilan bog‘liq. U Divan she‘riyatining asosiy shakliy unsurlari, xususan aruz vaznini saqlab qolgan holda, she‘r mazmunini tubdan yangiladi. Mumtoz adabiyotda ustuvor bo‘lgan ishqiy mavzular o‘rniga vatan, erkinlik, ma‘rifat, adolat va xalq

taqdiri kabi ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni she'riyat markaziga olib chiqdi. "Hürriyet Kasidesi" va "Vatan Şarkısı" kabi asarlarida she'r estetik zavq manbai bo'lishdan chiqib, jamiyatni uyg'otuvchi g'oyaviy vositaga aylandi:

Ziya dür ise evc-i rif'atinden ıztıraridir,

Hicab etsin tabiat yerde kalmış kabiliyetten ( Namık kemal., 1984, 70)

(Tarjimasi: *Agar ziyo nuri yuksaklik cho'qqisidan biroz uzoqlashgan bo'lsa, bu zaruratdir, balki chorasizlikdandir, Yerde egasiz, foydasiz qolib ketgan iste'dod esa tabiat uchun juda uyatlidir*)

"Hürriyet kasidesi" nomli mazkur she'rda bevosita ilm- ma'rifat tushunchalari keltirilmagan bo'lsa-da bilvosita unga ishora qilinadi. Qachonki, Aql-idrok sohiblari o'lkadan yetishib chiqsagina yurt rivoj topishi mumkinligini ta'kidlanadi. Yerde e'tiborsiz qolib ketgan har bitta yosh avlodning iste'dodi aslida insoniyat uchun yuborilgan ne'matligi aytiladi. Ularni ilm va tarbiya bilan o'stirish muhim ahamiyat kasb etadi. Namıq Kamol boshlab bergan g'oyaviy yangilanish Tavfiq Fikret ijodida estetik va uslubiy inqilob darajasiga ko'tarildi. "Servet-i Fünun" adabiy harakatining yetakchi vakili sifatida Tavfiq Fikret Divan poetikasidan keskin uzoqlashib, she'riyatda individualizm va modern estetikani qaror toptirdi. U aruz vaznidan foydalangan bo'lsa-da, misra tuzilishini erkinlashtirdi, tasvir va ramziy obrazlarni kuchaytirdi. Xususan, shoirning "İthaf" she'ridan o'qiymiz:

Haydi yuvana yavrucak;

O ma'rifet yuvasıdır,

Ve fazilet yuvasıdır.

Orda fikrin uyanacak;

Orda kanat açacaksın,

Yükseklere uçacaksın! (Tevfik Fikret., 1984.100.)

(Tarjimasi: *Qani, endi uyinga bor, bolajon. U ma'rifat uyi hamdir. Shuningdek, fazilat uyi desak ham bo'ladi. U yerda fikring, aqling uyg'onadi. U yerda qanotlaringni keng ochasan va yuksak osmonlar bag'riga uchasan!*)

Ko'rib turilganidek, she'rning o'qilishi ham, tushunilishi ham nihoyatda sodda va yengil. Shu tariqa Tavfiq Fikret turk she'riyatini estetik jihatdan modernlashtirib, XX asr modern she'riyatining poetik poydevorini yaratdi.

XX asr boshlariga kelib bu modern estetik tajriba Rizo Tavfiq ijodida umuman o'zgacha, milliy va xalqchil yo'nalishda davom ettirildi. Rizo Tavfiq she'riyatni millat qurilishining muhim madaniy vositasi deb bildi. Tilni

soddalashtirish, arabcha va forscha unsurlardan voz kechish uning poetikasining asosiy belgilaridan bo‘ldi. Rizo Tavfiq she’rlarida individual hissiyotlardan ko‘ra turklik, milliy birlik, tarixiy xotira va madaniy identitet masalalari ustuvorlik qiladi. Bu holat she’rni shaxsiy estetik ifodadan ijtimoiy-milliy g‘oyani targ‘ib etuvchi vositaga aylantirdi:

Soy og‘ir oqadir, to‘lg‘unmi, bilmam,

Oy og‘ir xastami, so‘lg‘unmi, bilmam,

Baxtsiz bir kelinday maxzunmi, bilmam,

Tog‘larin boshida qora tul bordir (Turkiy adabiyot durdonalari, 2022, 11)

Bu o‘rinda tog‘- Vatan, qora tul(parda) esa yurtni, millat farzandlarini ilmdan, erkdan mahrum qilayotgan zulm timsolida gavdalangan. Shoirning T.Fikratga bag‘ishlab yozilgan “Tavfiq Fikrat ruhiga” she’rida ham xalqona ohang, milliy ruh sezilib turadi:

Yoding o‘lim kabi bir sirri mubham!..

Sevmoq nash’asimi bu hissi alam?..

Ruhimga ne afsun aylading, bilmam...

Bu kun senga ko‘ngil bergani keldim!..

(Turkiy adabiyot durdonalari, 2022, 13)

### **XULOSA**

Ko‘rib turganimizdek, Namıq Kamol, Tavfiq Fikret va Rizo Tavfiq ijodi turk she’riyatida yuz bergan poetik yangilanishlarning uzluksiz zanjirini tashkil etadi. Namıq Kamol she’rning g‘oyaviy mazmunini yangilab, uni jamiyat hayoti bilan bog‘ladi; Tavfiq Fikret she’riyatni estetik va uslubiy jihatdan modernlashtirdi; Rizo Tavfiq, Ziya Gökalp esa bu jarayonni milliy va xalqchil poetik paradigmaga olib chiqdilar. Aynan shu izchil rivojlanish XX asr boshlarida turk she’riyatining zamonaviy, ijtimoiy mas’uliyatli va milliy ruhga ega adabiyot sifatida shakllanishini ta’minladi. Shunday qilib, XX asr boshlarida o‘zbek va turk poeziyasida ma’rifatparvarlik tafakkuri poetik modellarni yangilandi, she’rning ijtimoiy vazifasini kengaydi va, tabiiyki, bu holat uslubiy transformatsiyani jadallashtirdi. Mazkur jarayon milliy adabiyotlarni zamonaviy adabiy tafakkur bosqichiga olib chiqdi hamda keyingi adabiy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avloniy A. Jadid adabiyoti namoyandalari. – Toshkent: Zabarjad Media, 2024. –B.105.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – B. 151.
3. Cho'lpon. Turkiy adabiyot durdonalari. – Toshkent: O'zbekiston,2022. – B. 102.
4. Fikret Tevfik. Bütün şiirler–3: Haluk'un defteri. Kültür Yayınları, 1984. – B. 100.
5. Firat A. Jadid adabiyoti namoyandalari. – Toshkent: Zabarjad Media, 2024. – B. 55.
6. Karimov N. XX asr manzaralari. – Toshkent: O'ZBEKISTON,2008. –B.127.
7. Kemal Namik. Şiirleri. Ankara: Ayyıldız Matbaası A.Ş. – B. 70.
8. Qayumov Laziz. Asr va nasr. –Toshkent, 1975. – B. 88.
9. Turkiy adabiyot durdonalari. Turk zamonaviy she'riyati antologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 11.
10. Xurshid Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz>

## REFERENCE:

1. Avloniy A. (2024). Representatives of Jadid Literature. Tashkent: Zabarjad Media.
2. Avloniy A. (2009). Selected Works. In 2 volumes, Vol. 1. Tashkent: Ma'naviyat.
3. Cho'lpon. (2022). Masterpieces of Turkic Literature. Tashkent: Uzbekistan Publishing House.
4. Fikret Tevfik. (1984). Complete Poems-3: Haluk's Notebook. Kültür Publications.
5. Firat A. (2024). Representatives of Jadid Literature. Tashkent: Zabarjad Media.
6. Karimov N. (2008). Panoramas of the 20th Century. Tashkent: UZBEKISTAN.
7. Kemal Namik. Poems. Ankara: Ayyıldız Printing House Inc.
8. Qayumov Laziz. (1975). The Century and Prose. Tashkent.
9. Masterpieces of Turkic Literature. (2022). Anthology of Modern Turkish Poetry. Tashkent: Uzbekistan.
10. Xurshid Davron Library. <https://kh-davron.uz>